

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

KONSTITUTSIYA –YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING

HUQUQIY MUSTAHKAM POYDEVORI.

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti

Yurisprudensiya yo`nalishi 2- kurs talabasi

Mengliyeva Shahnoza Bahriiddin qizi

Yuridik fakulteti fuqarolik huquqi va fuqarolik protsessi o'qituvchisi

Allayorova Muattar Choriyorovna

Anotatsiya : Ushbu maqolani o'qish orqali O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va uning ayrim moddalarini haqida ma'lumotga ega bo'lasiz.

Kalit so`z : O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi, Qonuniylik, Ijtimoiy adolat, diniy bag'rikenglik.

Butun dunyo miqyosida ikki yuzdan ortiq mamlakatlar bo'lsa ularning har birini mustaqil suverin davlat ekanligini tasdiqlovchi hujjati ya`ni konstitutsiyasiga egadir. Shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining ham mustaqil, ijtimoiy, suveren davlat ekanligini tasdiqlovchi hujjati bo`lmish konstitutsiyasiga egadir. Konstitutsiya bir so`z bilan aytganda bir davlatning butun bir yer sharida mavjudligini tasdiqlovchi , ya,ni davlatning pasportidir.

Republikamiz mustaqillikka erishgacha 1992-yil 8-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n ikkinchi chaqiriq o'n birinchi sessiyasida mustaqil davlatimizning huquqiy asosi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi.

Asosiy qonunimizda davlat hokimyatining qonun chiqaruvchi, ijro etvchi va sud hokimiyatiga bo`linish pirinsiplari, har bir hokimiyatning vakolat doiralari, ularning tayinlanish yoki saylanish tartibi, bo`ysununchi organlar hamda ularning vakolatlari mustahkamlangan.

“Xalq – davlat hokimiyati birdan bir manbayidir” deb mustahkamlangan konstitutsiyamizda xalq davlat organlariga emas balki, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi mustahkamlangan. Konstitutsiyamiz fuqarolar huquq va manfaaatlari, xalq farovonligi uchun zaruriy barcha harakatlar mustahkamlangan.

Xususan, 2023 - yil 30 – aprelda o'tkazilgan umumxalq referendumi asosida qabul qilingan konstitutsiyamizning oltmish besh foizi o'zgartirish va qo'shimchalar bilan to'ldirildi. Konstitutsida otli bo'lim, yigirma yetti bob, bir yuzi ellik besh moddani o'z ichiga qamrab olgan.

Bu shuni anglatadiki davlat xizmatchilarining o'z ishiga yanada mas'uliyat bilan yondashishi, jamiyat va davlat hayotidan korrupsiya ildizlarini batamom sug'urib tashlash kerakligini, fuqarolar o'z huquqlarini yaxshiroq anglashi, qonun hujjalaringin mazmun-

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

mohiyatini chuqurroq anlashi lozimligini, o`z haq-huquqlarini poymol bo`lishiga yo`l qo`ymasligi zarurligini bildiradi.

Biz bugungi kunda glaballashuv davrida yashayotgan ekanmiz, u bilan ham ohang bo`lgan, zamon ehtiyojlaridan kelib chiqadigan qonun-qoidalarni joriy qilishni talab qiladi. Ammo bu qabul qilinayotgan qonunlar o`zbek xalqining ming yillardan buyon rivojlanib kelayotgan an`analari, urf – odatlariga, axloq-odob qoidalariiga muvofiq bo`lishi lozim.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyayev Konstitutsiya qabul qilinganligining 31 yilligi munosabati bilan xalq manfaatlariga, hayotimizning barcha sohalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan qonunlarni qabul qilish zarurligini ta`kidladi. Bu vazifani bajarishda albatta siyosiy partiylar va uning parlamentdagi fraksiyalari yanada faol, tashabbuskor bo`lishi lozim. Zero, huquqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyatining o`zi ham, so`zi ham, ko`zi ham qonun bo`lishi lozim.

Mustaqil demokratik yo`lda odimlayotgan O`zbekiston eng ulug` maqsadi bo`lmish yurtimizni eng rivojlangan davlatlar qatoriga ko`tarish uchun yurtboshimiz, davlat xizmatchilar, kun-u tun mehnat qilayotgan harbiy hodimlarimiz, har qaysi kasbda sitqi dilda mehnat qilayotgan mohir insonlarning o`rni beqiyosdir.

Davlat organlari, mansabdor shaxslar, mahaliy davlat hokimiyatlari, korxona, muassasa tashkilotlari tomonidan chiqarilayotgan har qanday hujjat Konstitutsiyaga va u asosida qabul qilingan qonunlarga muvofiq holda bo`lishi shart. Shu o`rinda huquqshunoslarning o`rni kattadir. Yetarlicha bilim va malakani o`zlashtirgan yuristgina o`z harakatlari davomida adolatni qaror topdirishi mumkin.

Konstitutsiyaning 14-moddasida shunday belgilangan:

“ Davlat o`z faoliyatini inson farovonligini va jamiyat barqaror rivojlanishini ta`minlash maqsadida:

- ❖ Qonuniylik,
- ❖ Ijtimoiy adolat,
- ❖ Birdamlik

prinsiplar asosida amalga oshiasi” deb mustahkamlab qo`yilgan

Darhaqiqat, qonuniylik bu biz qurmoqchi bo`lgan fuqarolik jamiyatining eng muhum belgisi hisoblanadi. Buning uchun korrupsiyaga barham berish kabi muhim muammoga duch kelamiz. Ushbu muammo ikki – uch yil mobaynida bar ham berish mushkul masaladir ammo, tarbiyalanib kelayotgan yosh avlodni korrupsiyaga toqatsizlik ruhida tarbiyalash orqali biz albatta korrupsiyani jamiyatimizdan sug`urib tashlay olamiz.

O`zbek xalqining oila deb atalmish muqqadas qo`rg`oni muvjud. Farzandning qanday kamol topishi ota-onasi bergen tarbiyasiga bog`liq. “Qush uyasida ko`rganini qiladi” deganlaridek, ziyoli, o`qimishli oilaning farzandlari yaqin kelajakda o`z yo`lini topa oladigan, vijdonini bir chaqa pulga alishtirmaydigan, diyonatli, halol, pok inson bo`lib yetishadi.

Bilamizki, maktab yuz yillardan buyon ilm o`chogi vazifasini o`tamoqda. Yoshlarni vatan kelajagi uchun ma`sul qilib tarbiyalashda maktab va bog`chalar muhum ahamiyat kasb etadi.

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

Maktab va bog`cha hodimlari uchun malakali, jamiyatdagi yurish-turish qoidalariga rioya etdigan kadrlarni ishga qabul qilish lozim.

Konstitutsiyaning 50-moddasida quydagicha belgilanib qo`yilgan:

“ Har kim bilim olish huquqiga ega “ deb belgilanib qo`yibdi.

O`zbek xalqi diniy bag`rikeng, ochiqdil, mehribon, oqibatli, mehnatsevar va mehmondo`s t xalq. Bugungi kunda diyorimizda 120 dan ortiq millat va elat vakillari o`zbek xalqi bilan birga istiqomat qilib kelmoqda. Mamlakatimiz hududida yashab kelayotgan barcha millat va elatlarni urf-odatlari, diniy e`tiqodi hurmat qilinadi va ularni rivojlantirish uchun barcha shariotlar yaratib beriladi.

Konstitutsiyaning 19-moddasiga muvofiq:

“ O`zbekiston Respublikasi barcha fuqarolar bir xil huquq va va erkinliklarga ega bo`lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e`tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeidan qat`i nazar, qonun oldida tengdirlar ”.

Ushbu qoidalar insonning jamiyatdagi qadr-qimmatini belgilab beruvchi asosiy tamoyildir. Inson tug`ulibdiki barcha teng huquqlidir.

Xulosa qilib shuni aytamanki, Konstitutsiya bu bizning yo`limizni yoritguvchi shamchiroqdir. U huquqlarimizni kafolotlovchi eng asosiy hujjatimizdir. Biz yoshlar esa, bizga berilayotgan imkoniyatlardan to`g`ri foydalangan holda davlat rivojiga o`z hissasini qo`shadigan kadr bo`lib yetishishimiz darkor. Bugungi kundagi davlatimiz tomonidan yaratib berilayotgan imkoniyatlardan yetarli darajada foydalananib, rivojlangan mamlakat yaratish biz ozod O`zbekiston yoshlarining ham qarzimiz, ham farzimiz hisoblanadi. Buning uchun biz har doim qo`lni qo`lga berib ertangi kunga mustahkam ishonch bilan ildam tashlaymiz.

Foudalanilgan adabiyotlar

1. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023. 30-aprel
2. www.lex.uz
3. www.Library.uz